

O‘QUVCHILARDA KASBIY MUVAFFAQIYATGA ERISHISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Mamatqulova Maftuna Jura qizi

Boysun tumanidagi 25-sonli maktab amaliyotchi psixologi

Berdimurodova Maftuna G‘ulom qizi

Boysun tumanidagi 38-sonli maktab amaliyotchi psixologi

Ramazanova Inobat Abdukarimovna

Boysun tumanidagi 39-sonli maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarda kasbiy muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik asoslari, bu jarayonda motivatsiya, o‘ziga ishonch va ijtimoiy muhitning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini oshirishga qaratilgan samarali usullar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kasbiy muvaffaqiyat, o‘quvchi, ko‘nikma, motivatsiya, o‘ziga ishonch, maqsad, psixologiya, rivojlanish, muloqot, o‘zini boshqarish.

KIRISH

Har bir o‘quvchining kelajakdagi muvaffaqiyati uning maktab davrida shakllangan ko‘nikmalariga bog‘liq bo‘ladi. Kasbiy muvaffaqiyatga erishish faqat bilim bilan emas, balki shaxsiy sifatlar, psixologik tayyorgarlik va to‘g‘ri yo‘naltirish bilan ham belgilanadi.

O‘quvchilarda kasbiy muvaffaqiyat ko‘nikmalarini shakllantirish avvalo ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishdan boshlanadi. O‘ziga ishongan o‘quvchi qiyinchiliklardan qo‘rqmaydi, yangi imkoniyatlarni izlaydi va o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘ya oladi.

Motivatsiya ham bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchi o‘z kelajagini aniq tasavvur qilsa va maqsad qo‘ya olsa, u o‘qishga va rivojlanishga intiladi. Shu sababli o‘qituvchilar va ota-onalar o‘quvchini rag‘batlantirib borishi zarur.

Psixologik usullardan biri — maqsad qo‘yish va rejalashtirishdir. O‘quvchilarga kichik va katta maqsadlarni belgilashni o‘rgatish ularning intiluvchanligini oshiradi. Har bir erishilgan natija esa yangi motivatsiya beradi.

Shuningdek, o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish ham muhimdir. Vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, mas‘uliyatni his qilish va mustaqil qaror qabul qilish kasbiy muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biridir.

Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish ham alohida ahamiyatga ega. O‘quvchi boshqalar bilan samarali aloqa o‘rnata olsa, jamoada ishlashni o‘rganadi va bu kelajak kasbiy faoliyatida katta yordam beradi.

Amaliy mashgʻulotlar, treninglar va turli faoliyatlar orqali oʻquvchilarda real hayotga mos koʻnikmalar shakllantiriladi. Bu esa ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi.

Shuningdek, oʻquvchilarda muammolarni hal qilish koʻnikmasini rivojlantirish muhimdir. Har qanday qiyinchilikni toʻgʻri baholash va yechim topa olish muvaffaqiyatga olib keladi.

Oila va maktabning qoʻllab-quvvatlashi bu jarayonda katta rol oʻynaydi. Oʻquvchi oʻzini qadrlangan va qoʻllab-quvvatlangan his qilsa, u oʻz imkoniyatlarini toʻliq namoyon eta oladi. Kasbiy muvaffaqiyat — bu insonning oʻz tanlagan kasbida yuqori natijalarga erishishi, oʻz ishidan qoniqish olishi va jamiyatda oʻz oʻrnini topa bilishidir.

Oddiy qilib aytganda, bu — insonning oʻz kasbida yaxshi ishlashi va rivojlanib borishi demakdir.

Kasbiy muvaffaqiyat faqat yuqori daromad bilan emas, balki quyidagi jihatlar bilan ham belgilanadi:

- oʻz ishidan mamnun boʻlish;
- kasbida doimiy rivojlanish;
- oʻz bilim va koʻnikmalarini oshirib borish;
- jamoada oʻz oʻrnini topish;
- boshqalar tomonidan hurmat qilinishi.

Kasbiy muvaffaqiyatga erishish uchun muhim omillar:

- toʻgʻri kasb tanlash;
- mehnatsevarlik va intilish;
- oʻziga ishonch;
- masʼuliyatlilik;
- doimiy oʻrganish va rivojlanish.

Kasbiy muvaffaqiyat — bu insonning oʻz imkoniyatlarini toʻliq roʻyobga chiqarib, oʻz kasbida yetuk mutaxassisga aylanishidir. Inson oʻz hayot yoʻlini davom ettirar ekan, doimo baxtga intilib yashaydi. Baxtli boʻlish uchun esa oʻzi va oilasiga - farovon hayot yaratishga, mustahkam oila qurishga, yaqin insonlari bilan birga boʻlishga va albatta sevimli kasbiga ega boʻlishga harakat qiladi. Buning uchun esa koʻpgina mashaqqatli yoʻllarni bosib oʻtishiga toʻgʻri keladi. Bu yoʻlda turli tanlovlarga duch keladi va bunday tanlovlarning eng asosiylaridan biri- kasb tanlashdir. Axir, xalqimizning yoshi ulugʻlari bejizga : “ Inson hayot yoʻlida umr yoʻldoshi va kasbini toʻgʻri tanlasa, turmush mashaqqatlarini yengishi osonlashadi” – deb aytishmagan.

Xoʻsh, kasb tanlash jarayoni qay tarzda sodir boʻladi? Kasb tanlashda qaysi jihatlariga eʼtibor berish kerak? Kasb tanlash jarayoning psixologik asoslari nimadalardan iborat? va shu kabi savollarga ushbu maqolada javob topishga harakat

qilamiz. Buning uchun avvalo “Inson- kasb” tushunchasini chuqurroq o`rganishimiz kerak bo`ladi.

Kasb-inson ish faoliyatining ma`lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi,sohasi,hunaridir. Insonni ma`lum bir ehtiyojlarini va mafaatlarni o`zi tanlagan kasbga umumiy yoki maxsus ma`lumot hamda amaliy tajriba yo`li bilan erishiladi. Hayotiy jarayonlar esa kasblarni doimiy emasligini ko`rsatadi. Kasblarni ayrimlari paydo bo`ladi va ayrimlari yo`q bo`lib ketar ekan . bu kasblarni ayrimlari texnika va texnologiya sohalarini taraqqiyoti bilan bog`liq holda takomillashib boradi, yangi ko`rinishga ega bo`lgan kasblarni paydo qiladi, eskilarini yanada takomillashtiradi. Misol uchun hozirgi zamon to`quvchisining ishini ilgari zamondagi to`quvchi mehnati bilan taqqoslab bo`lmaydi. Hozirda to`quvchi uskunalari avtomatlashganligi tufayli bir qancha to`quv stanoklarini bir vaqtda boshqaradi. Albatta bu jarayonlarni taqqoslab bo`lmaydi. Albatta kasb tanlashda bu kabi tomonlarni hisobga olish ham o`rinlidir.

Kasb psixologiyasining obyekti bo`lgan “inson – kasb” munosabatlari yuz beradigan o`zgarishlarni diqqat-e`tiborga olishi zarur va bular bu sohadagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikni vujudga keltiradi. Bu o`zgarishlarni N.D.Levitov ko`rsatganidek uchta guruhga birlashtirish mumkin.

Birinchi guruh- motivatsion komponentlar bo`lib, bu ijtimoiy ahamiyatlilik bilan bog`liq bo`ladi. Motivlarda insonni ma`lum bir kasbni egallashni xohlashi yoki xohlamasligi bilan bog`liq tomonlar ochib beriladi. Motivlarning shakllanishi esa kasbni jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatliligi , ahloqiy tomonlarini hurmatlashi kabi tomonlar bilan o`lchanadi. Shu bilan birga, motivga mehnatga beriladigan haq, kasbiy va kasbdan tashqaridagi hayot obrazi va shu kabilar ta`sir etadi. Bundan tashqari motiv bo`lib oilasini ta`minlanganlik darajasi, tengdoshlarini fikri, ish joyini yaqin yoki uzoqligi, ota-onasining fikrlari va shu kabilar kiradi. Albatta motivga insonni o`zi mehnatidan oladigan qoniqishi ham kiradi.

Ikkinchi guruhga - klassifikatsiya komponentlari kiradi. Deyarli hamma kasblar oldindan tayyorgarlik ko`rishni talab qiladi. Bilish va uddalay olish qanday tarzda sodir bo`lishidan qat`i nazar, o`qish orqali yoki amaliyotda agallanadimi u kasbga bo`lgan munosabatda va unga bo`lgan layoqatda ko`rinadi. Insonni mehnatga bo`lgan layoqati uning psixofizologik imkoniyatlaridan, o`zining xohishidan, ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqadi. Inson har qanday kasbni egallay olishi uchun eng avvalo unda layoqat bo`lishi, o`zida bilimga va malakaga ehtiyoj sezishi muhimdir.

=Uchinchi guruhga- shaxsning individual-psixologik xususiyatlari kiradi. Albatta motivlarni shakllanishida va uddalay olishda psixologik xususiyatlar muhim hisoblanadi. Lekin uni alohida o`rganish obyekti sifatida qarash kerak. Bir kishini ikkinchisidan ajratib turadigan ko`plab belgilardan doimiy yuz beruvchilariga e`tiborni qaratish zarur bo`ladi. Bu belgilar asosan biologik va tabiiylikiga bog`liq bo`ladi. Kasb psixologiyasining obyekti bo`lgan “Inson-kasb” munosabatlarida bu tomonlar uning

o`rganish predmeti sifatida kata ahamiyatga ega bo`ladi. Shaxsga xos bo`lgan individual-psixologik xususiyatlar insonni o`ziga xos bo`lgan tomonlari, ya`ni temperamenti, xarakteri, qobiliyati, dunyoqarashi kabi tomonlar bilan bog`liqligini ko`rsatadi.

“Inson-kasb” munosabatlari shakllanib borishi natijasida shu yuqorida ko`rsatilgan uchta komponentlar muhim hisoblanadi. Ular birgalikda insonni o`zi tanlab olayotgan kasbini to`g`riligini ko`rsatib beradi.

O`sib kelayotgan yoshlarni o`ziga xos bo`lgan dunyoqarashi borligini ajratib ham ko`rsatish zarur. Bu dunyoqarash ularni atrof-muhitga, tabiatdagi va jamiyatdagi hodisalarga qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bu esa kasb tanlovchining olayotgan bilimlaridan, malakalaridan, psixofiziologik imkoniyatlaridan, psixologik xususiyatlari, individual-psixologik tomonlaridan oladi. Bu yoshlardagi tirishqoqlik, uddaburonlik, bilimga chanqoqlik, kuzatuvchanlik, o`zini sinab ko`rishga intilishi kabilarda yaqqol ko`zga tashlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o`quvchilarda kasbiy muvaffaqiyatga erishish ko`nikmalarini shakllantirish murakkab, ammo muhim jarayondir. To`g`ri psixologik yondashuv, motivatsiya va qo`llab-quvvatlash orqali har bir o`quvchi o`z salohiyatini ochib, kelajakda muvaffaqiyatli shaxsga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud ahloq.-Toshkent: O`zbekiston, 1992.
2. Abduraxmonov F.R., Xalmuratova J.G. Pedagogik jarayon- lami boshqarish o`quv uslubiy qo`llanma.-T.:TTESI., 2015.
3. Abduraxmonov F.R. Pedagogik sotsiologiya.- T., “Noshir” 2015.
4. Abduraxmonov F.R., Abduraxmonova Z.E. Kasb psixologi yasi (o`quv qo`llanma).-T.:P TTESI., 2017.
7. Jalolov.A Kasb qanday tanlanadi.- T., 2010.
5. Климов Э.А. Психология профессионального самоопределения.- Ростов, Н/Д: 1996.
6. Kaykovus “Qobusnoma” .:-T., 1994.26b.
7. Ziyonet.net